

**BOSHLANG'ICH SINFLARDA XORIJIY TILLARNI O'RGATISHDA  
INNOVATSION TEXNLOGIYALARDAN FOYDALANISH.**

*Mutalliyeva Malika Baxodirovna*

*Namangan Davlat Unversiteti*

*2-bosqich doktoranti*

[malikamutalliyeva89@gmail.com](mailto:malikamutalliyeva89@gmail.com)

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada boshlang'ich sinflarda xorijiy tillarni o'rgatishda qo'llaniladigan innovatsion texnologiyalar va metodlarning samaradorligi tahlil qilinadi. CLIL metodi, rolli o'yinlar, juftlik va guruhli ish hamda o'yinlashtirish metodlarini ta'lim jarayonida qanday natijalar berishi ko'rib chiqiladi.

**Kalit so'zlar:** boshlang'ich ta'lim, xorijiy tillarni o'rgatish, innovatsion texnologiyalar, interfaol metodlar, CLIL va o'yinlashtirish (gamefication) metodi.

**Аннотация:** В данной статье анализируется эффективность инновационных технологий и методов, используемых при обучении иностранным языкам в начальных классах. В частности, рассматривается влияние таких методик, как метод CLIL, ролевые игры, парная и групповая работа, а также геймификация, на образовательный процесс и его результаты.

**Ключевые слова:** начальное образование, изучение иностранных языков, инновационные технологии, интерактивные методы, CLIL, геймификация.

**Annotation:** This article analyzes the effectiveness of innovative technologies and methods used in teaching foreign languages in primary school. In particular, it examines the impact of methods such as the CLIL approach, role-playing games, pair and group work, and gamification on the learning process and its outcomes.

**Keywords:** primary education, foreign language learning, innovative technologies, interactive methods, CLIL, gamification.

Hozirgi zamon ta'lim tizimi doimiy rivojlanishda bo'lib, bu tizimning asosiy o'zagini boshlang'ich ta'lim tashkil etadi. Boshlang'ich ta'lim yoshi (6-10 yosh) bolaning intellektual, ijtimoiy va jismoniy rivojlanishi uchun asosiy bosqich sanaladi. Bu bosqichda ular yangi bilimlarni o'zlashtirib, mantiqiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantiradilar hamda, ijtimoiy muhitga moslashishga o'rganadilar. Bolalarning jismoniy va aqliy jihatdan rivojlanishi va bilim olishi yuzasidan bir qator olimlarning bergan nazariyalarni ko'rib chiqamiz. Jean Piaget nazariyasiga ko'ra, boshlang'ich maktab yoshidagi bolalar mantiqiy fikrlashni boshlaydilar, lekin abstrakt tushunchalarni tushunishda qiyinchilik sezadilar. Lev Vygotskiyning ijtimoiy-madaniy rivojlanish nazariyasiga ko'ra, bolalar bilimlarni atrofdagi insonlar bilan o'zaro aloqa qilish orqali o'zlashtiradilar. Maria Montessorning ta'kidlashicha, boshlang'ich yoshidagi bolalar harakat orqali yaxshiroq o'rganadilar. Quyida berilgan nazariyalarni

umumlashtirib, boshlang'ich ta'lim yoshidagi bolalarga ta'lim berish muloqot, tajriba va harakat orqali samarali kechadi deb hisoblaymiz. Boshlang'ich sinflarda xorijiy tillarni o'rgatish bolalarning kelajakda global muloqatga tayyorlanishi va turli madaniyatlarni yaxshiroq tushunishiga ko'maklashadi. O'zbekiston Respublikasida Prezidentining "O'zbekiston Respublikasida Xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatdan yangi bosqichga olib chiqish chora tadbirlari to'g'risida" 2021- yil 19-maydagi PQ-5117 son qarorini qabul qilinishi sohani rivojlanishiga turtki bo'ldi[1]. Xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirish bo'yicha tashkiliy chora-tadbirlar ishlab chiqildi va qator istiqbolli rejalar tuzildi. Jahonga yuz tutgan ilg'or davlatlarning asosiy talabi bir nechta tilda erkin muloqat qila oladigan, kompyuter texnologiyalaridan xabardor va innovatsion g'oyalarga ega bo'lgan kadrlardir. Respublikamizda xorijiy tillarni o'qitishda an'anaviy yoki ancha eskirgan dasturlardan voz kechgan holda ularni o'rnini bosa oladigan dunyoning yetakchi davlatlari tajribalariga tayangan holda ishlab chiqilgan yangi dasturlar, samarali metodlar va usullardan oqilona foydalanish lozim. Quyida zamonaviy pedagoglar foydalanishi mumkin bo'lgan ilg'or texnologiyalar va metodlar bayon etiladi.

**Interfaol metodlar.** Interfaol o'qitish o'quvchilarning faollikka undaydi va ularning xorijiy til muhitiga kirishiga yordam beradi. Ushbu metodlar orqali bolalar o'z fikrlarini erkin ifoda etish, so'z boyligini oshirish va amaliy til bilimlarini mustahkamlash imkoniga ega bo'ladi[2;184]. Interfaol metodlardan eng keng qo'llanadigani bu **CLIL**(Content and Language Integrated Learning) metodi hisoblanadi. Bu metod 1990 yillarda David Marsh va Dokoyle tomonidan fanga olib kirildi. Marsh til va fanlarni integratsiyalash orqali ta'lim samaradorligini oshirish mumkin deya ta'kidlagan[3;171]. Bu metod o'quvchilarga Ingliz tilini boshqa fanlar bilan hamkorlikda o'rganishlariga yordam beradi. Masalan, Matematika va tabiatshunoslik darslari ingliz tilida olib borilishi mumkin. Marsh ushbu metod orqali tilni tabiiy muhitda o'rganish samarali bo'ladi deya ta'kidlaydi.

**Rolli o'yinlar.** Ushbu metod o'quvchilarning ingliz tilida muloqat qilish ko'nikmalarini rivojlantirish uchun juda samaralidir. Masalan "Sotuvchi va xaridor" yoki "Doktor va bemor" mavzularida rolli o'yinlarni tashkil qilish orqali bolalar amaliy nutq ko'nikmalarini shakllantiradilar[4;122].

**"Aqliy hujum" (Brainstorm).** Yangi mavzuni tushuntirish yoki muhokama qilish jarayonida o'quvchilardan erkin fikr bildirish so'raladi. Bu esa ularning ijodiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirishga yordam beradi. Aqliy hujum metodini ishlab chiqqan Alex Osborn o'z asarlarida "Tanqidni kechiktirish tamoyilini ilgari surdi". U hech bir fikrni darhol rad etmaslik kerak, avval barcha g'oyalar yig'lishi lozim degan g'oyani ta'kidlagan [5;98]. Shu bilan birgalikda bu metod bo'yicha De Bona Terranse kabi tadqiqotchilar ilmiy izlanishlar olib borganlar.

**Juftlik va guruhli ish (Pair and Group Work)** metodi. Bu metod orqali o'quvchilar o'zaro hamkorlikda muammolarni hal qilish va muloqat qilish ko'nikmalarini oshiradilar Boshlang'ich sinflarda ingliz tilini o'qitishda juftlik va guruhli ish metodlaridan foydalanish ta'lim jarayonini samarali tashkil etish uchun muhimdir. Ushbu metodlar o'quvchilarning faol ishtirokini ta'minlaydi va tilni o'rganish jarayonida ko'proq muloqat qilish imkoniyatini yaratadi.

Tilshunos Nunan juftlik va guruhlik ishlash o'quvchilarning faolligini oshirish, tabiiy muloqat muhitini yaratish va o'zaro ta'lim berish imkoniyatini kengaytirish uchun samarali usul ekanligini ta'kidlagan[6;210]. **O'yinlashtirish (Gamefication)** metodi – ta'lim jarayoniga o'yin elementlarini qo'shish orqali uni yanada jozibador va samarali qilish usulidir. Oddiy dars jarayoni ba'zan ayniqsa yosh o'rganuvchilar uchun zerikarli bo'lishi mumkin, biroq darsga o'yin elementlari qo'shilganda esa o'quvchilar o'rganish jarayonini o'yin sifatida qabul qilishadi. Shvetsariyalik psixolog Piaget o'yinlarning kognitiv rivojlanishidagi o'rnini tadqiq qilgan. U o'yin bollarning dunyoni tushinish va muammolarni hal qilish ko'nikmalarini shakllantirishga yordam beradi deb hisoblagan[7;58].

Boshlang'ich sinflarda xorijiy tillarni o'qitishda innovatsion texnologiyalar va interfaol metodlardan foydalanish samaradorligini oshiradi. CLIL metodi, rolli o'yinlar, juftlik va guruhli ish, shuningdek, raqamli texnologiyalarning joriy etilishi xorijiy til o'rganish jarayonini osonlashtiradi va o'quvchilarning qiziqishini oshiradi. Kelajakda ushbu metodlarni yanada rivojlantirish va ta'lim tizimiga keng joriy etish muhim ahamiyat kasb etadi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

- 1)Mirziyoyev Sh.M."Chet tillarni o'rganishni ommalashtirishni samarali tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida" 2021-yil 19-maydagi 312-son qarori
- 2)Vygotsky.L.S. Mind in Society: The Development of Higher psychological Processes Harvard University Press. 1978.-184p
- 3)Marsh D "Bilingual Education Content and Language Integrated Learning" Paris. International Association for Cross – cultural communication. 1994.-171p
- 4) Wright.A and Buckby.M. Games for Language Learning. Cambridge Universite Press.2006.-122 p
- 5) Osborn. A.F. "Applied Imagination: Principles and Procedures of Creatiive Problem – Solving" 1953.-98 p
- 6)Nunan. D. Language Teaching Methodology: A Textbook for Teachers. Prentice Hall 1991.-210 p
- 7) Piaget.J "Play,Dreams and Imitation in childhood".1951.-58p